



UDK:173(575.1)

Dildora MIRAKBAROVA,
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti v.v.b., (PhD)
E-mail: dmirakbarova@yandex.com

TDIU professori, f.f.d. A. Muxtarov taqrizi asosida

NOTO'LIQ OILADA VOYAGA YETAYOTGAN BOLALARNING HUQUQIY, DINIY VA PSIXOLOGIK HOLATLARI

Аннотация

Oila mustahkamligi, oilaviy qadriyatlarining davomiyligi har bir odamning jamiyat oldidagi insoniylik burchi hisoblanadi. Oila nafaqat ikki insonning, balki farzandlar, kelajak avlod, jamiyat taraqqiyotining baxtli taqdiri kafolati hamdir. Farzandlarning baxti nafaqat moddiy to'kinlik bilan, balki ularning ko'zlaridagi quvonch, ma'naviy osoyishtalıkları bilan ham o'lchanadi.

Kalit so'zlar: Oila, farzand, ajrashish, yetimlik, hizona, alimant.

ПРАВОВОЕ, РЕЛИГИОЗНОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ДЕТЕЙ РАСТУЩИХ В НЕПОЛНОЦЕННЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация

Стабильность семьи, продолжительность семейных ценностей – человеческий долг каждого человека перед обществом. Семья – это не только залог двух людей, но и счастливая судьба детей, будущего поколения, развитие общества. Детское счастье измеряется не только материальным достатком, но и радостью в глазах и духовным спокойствием.

Ключевые слова: Семья, ребенок, развод, сиротство, хизона, алименты.

LEGAL, RELIGIOUS AND PSYCHOLOGICAL STATE OF CHILDREN GROWING IN DIVORCED FAMILIES

Annotation

The stability of the family, the continuity of family values is the human duty of every person to society. Family is not only the guarantee of two people, but also the happy fate of children, the future generation, and the development of society. Children's happiness is measured not only by material wealth, but also by joy in the eyes and spiritual peace.

Key words: Family, child, divorce, orphanhood, hizona, alimony.

Kirish. Xalqimiz qadim-qadimdan bola tarbiyasida umuminsoniy, milliy va diniy tajribalarni uyg'unlikda olib borib, davlatimiz, jamiyatimiz, qolaversa, dunyo taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimlar, allomalarni yetishtirib chiqargan va yetishtirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqida «Ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz»[1] deb, bolaning yorqin kelajagi nafaqat ota-ona, ta'lim muassasasi xodimlari, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, balki butun jamiyatning burchi ekanligini ta'kidlab o'tgan.

O'zbekiston Respublikasining qomusi bo'lmish Konstitutsiyaning 77-moddasida «Ota-onalar va ularning o'rmini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar»[2] deb, bola huquqlari qonuniy tartibda mustahkamlangan. Shuningdek, davlatimiz ushbu sohaga oid ko'plab qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilgan, xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 9 dekabrda «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya»ga qo'shilgan. Ushbu konvensiya 54 moddadan iborat. «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya»ning 18-moddasida «Ota-ona birgalikda bola tarbiyasi uchun asosiy javobgarlar hisoblanadi va har bir bola uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib berishdan kelib chiqadi, davlat esa bu borada ularni qo'llab-quvvatlashi shart.

Davlat bolani tarbiyalashda ota-onaga tegishli yordam ko'rsatishi zarur»[3], deb belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet el olimi Amy Hermodson «Ajrashishdan keyingi hayot» nomli dissertatsiyasida Amerika oilalaridagi ajrashish sonining ortishi va ajrashishdan keyingi «ma'nan og'ir vaziyat» bugungi kun uchun global muammolardan biri ekanligini aytib o'tgan: «Oxirgi 40 yil ichida birinchi nikohning 50%i, ikkinchi nikohning 60%i ajrashish bilan tugadi. Bu jadal kechayotgan jarayon sababli ushbu mavzudagi tadqiqotlarga bo'lgan talab 1970-yillarga kelib oshdi. Bu mavzudagi ishlar bir necha guruhga bo'linadi: 1. Ajrashuvning bolaga salbiy ta'siri; 2. Ajrashish muhitiga bolaning moslashuviga ta'sir etuvchi omillar; 3. Voyaga yetgan «ajrashuv bolalari».

Tadqiqotlarning bir qismi bolalarni ajrashishga ko'niktirishga qaratilgan bo'lib, unda ota-onalar ajrashishning bolalarga salbiy ta'siri, noto'liq oiladagi nizoli vaziyatlar, yolg'iz onalar uchun, iqtisodiy qiyinchiliklar, vasiylikni olmagan ota-onadan birining bola hayotidan butunlay chiqib ketishi kabi holatlar o'rganilgan»[4].

Xorij olimlaridan Endi Astinah Adnan, Rabihatun Idris Rauf va boshqalarning «Ajrashuvni qabul qilish ta'limi»[5], David Mechanic and Stephen Hansellning «Ajrashish, oilaviy nizolar va ularning o'smirlilik davri farovonligiga ta'siri»[6], Frank F.Furstenberning «Ajrashish va Amerika oilalari»[7], Aniruddh Prakash Behere, Pravesha Basnet, Pamela Campbellning «Oila buzulishining bolalar ruhiy salomatligiga ta'siri: dastlabki tadqiqot»[8], Bram Hogendoorn, Thomas Leopold and Thijs Bolning «Ajrashish va kambag'allik darajasi: xavf va zaiflik»[9] kabi maqolalarda oila mustahkamligini saqlash, ajrashish sabablarini o'rganishdan ko'ra, ajrashuvning oilada voyaga yetayotgan farzandlarning

jismoniy va ruhiy sog'lig'iga bo'lgan ta'siriga ko'proq e'tibor qaratilgan. Solishtirib o'rganadigan bo'lsak, o'zbek oilalarida ajrashish yuz berganda nafaqat farzand, balki er-xotin, ularning ota-onasi va yaqinlari ham psixologik og'ir vaziyatga tushib qoladilar. Bu o'zbek mentalitetining og'riqli bir nuqtasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oila atalmish qo'rg'on darz ketganda ma'naviy qurbonlar ko'p bo'ladi. Shular orasida eng qattiq ma'naviy zarbaga uchragan insonlar – bu norasida farzanlardir. Sinovli dunyoga kelishi bilan «tirik yetim», «yarim yetim» nomini olganlar soni bugungi kunda yildan yilga oshib bormoqda.

«Oila ensiklopediyasi»da «Noto'liq oila – bu ota-onalardan biri yo'q bo'lgan oila. Yana bir qo'shimcha oila turi bo'lib, u funksional jihatdan noto'liq oila deb ataladi, bunda ota-onalar o'zlarining professional bandliklari yoki uzoq muddatda oilada bo'la olmasliklari sababli, oila a'zolariga nihoyatda kam vaqt ajratadilar. Bu oila turida ota-onalarning ajrashib ketishidan tashqari, biror obyektiv va subyektiv sabablar natijasida: bemorlik, favqulodda hodisalar, o'lim, mehnat migratsiyasi tufayli er yoki xotinning o'zga yurtlarda qolib ketish holatlari ham uchraydi», [10] deb «noto'liq oila» tushunchasiga ta'rif berilgan.

Psixolog G. Shumarov «Ma'lumki, o'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to'g'ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o'zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko'p», [11] degan. Ta'kidlash lozimki, ajrashishdan keyin ma'naviy qurbonlar soni, bolalar hisobiga, o'zbeklarda afsuski ko'proq.

Rus olimalaridan biri N.Biniyeva noto'liq oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ijtimoiylashuvini tadqiq etadi: «Noto'liq oilalarning asosiy muammolaridan biri – ulardagi bolalar tarbiyasi va ijtimoiylashishi muammosidir. Birinchidan, noto'liq oilada oilaning iqtisodiy barqarorligi va qolgan barcha vazifalar bir inson yelkasiga yuklanadi. Farzandini moddiy ta'minlashga, boshqalardan kam qilmaslikka harakat qilayotgan ota yoki ona farzandining harakatlari, qilayotgan ishlari ustidan to'liq nazorat olib bora olmaydi va pedagogik vazifasini bajarishi qiyinlashadi. Ikkinchidan, ajrashish bolalarning axloqiy-psixologik holatiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Noto'liq oiladagi bolalar erkak va ayol, er va xotin, ota va farzand kabi munosabatlarni oila ichida kuzata olmaganliklari sababli bunday munosabatlarga kirishishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Ota-onaning mehri yetishmasligi oqibatida bolada o'ziga ishonchning pastligi, boshqa odamlar va munosabatlarga nisbatan «xavfsizlik» hissini yetishmasligi, doimiy hissiy bezovtalikni his qilib, boshqa insonlardan uzoqlashish, ularga moslasha olmaslik qo'rquvi bu bolalarning butun umr qiyin keladigan salbiy oqibatlardir. Noto'g'ri va noto'liq shakllangan oilaga oid dunyoqarash bolalarning tashqi muhitdan uzilishlariga, yolg'izlikka moyillikka olib keladi» [12]. Tadqiqotchi noto'liq oilada voyaga yetayotgan bolaning ruhiy holatini ilmiy yoritib bergan. Uning fikriga qo'shilgan holda, qo'shimcha qilamizki, aksariyat hollarda «yarim yetim bolalar»ning psixologik holati hozirda voyaga yetayotgan oilalarida yo'lga qo'yilgan ma'naviy muhitiga ko'proq bog'liq.

Ko'pincha oilalar buzilganda bolalar onada qoladi. Bunga sabab, onasi farzandini barcha talablarini, injiqliklarini yaxshi bilishi, ko'p vaqtini asosan farzandi bilan o'tkazganidadir. Ammo bu ota endi otalik vazifasidan ozod degani emas. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 96-moddasida «Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota(ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi» [13] deyilgan. Qonun hujjatlarida belgilangan tartib

asosida, bola manfaatlarini ko'zlab, ota-onaning o'zi ham aliment to'lash tartibini kelishib olishlari mumkin.

Islom dini tarixida ham ajrashish holatlari bo'lgan. Bunday vaqtda, ya'ni ayol eri bilan oila bo'lib yashab ketolmasligi aniq bo'lgan, murosa yo'lga o'tilgan. Ya'ni ayol va uning farzandlari uchun alohida uy ajratilgan va ota erlik vazifalarini bajarmasa ham, otalik burchini ado qilib, bolalarini moddiy va ma'naviy ta'minlagan. «Shariat istilohida ota va ona ajrashganidan keyin go'dak bolani o'z qaramog'iga olish va tarbiya qilish – «hizona» («quchog'iga olish») deyiladi. Ota-onaning nima sababdan va qanday holatda ajrashganlaridan qat'i nazar, onasi istab tursa, bola onaga beriladi. Agar ayol olishni istamasa, ona tomonidan ayol qarindoshga beriladi. Albatta, bu mas'uliyatning ma'naviy tomonini erkaklarga nisbatan ayollar yaxshi bajara olishlari hammaga ma'lum. Ammo hadisi shariflarga ko'ra, bolani va bola tarbiyasi bilan band bo'lgan onani moddiy ta'minlash otaning burchi bo'lib qolavergan va bunday majburiyatdan bo'yin to'vlash otalar uchun ham or hisoblangan.

Bugungi kunda, asosan, ajrashishdan so'ng bolalarning ta'minoti to'liq onasining zimmasiga o'tadi. Ota uchun esa nafaqat ayoli, balki farzandlari ham «sobiqlik maqomini egallaydi. Endi ular undan uzoqda, «yomon» onasining qo'lida, demak o'sha ona boqib olsin, degan tushuncha bilan uyalmay, boshqa yangi hayot qurishni ko'zlab yurgan odamlar oramizda oz emas. Bolaning ma'naviy holati u yoqda tursin, moddiy ehtiyojlari ham ta'minlanmaydi. Sud tomonidan undiriladigan aliment ham mutasaddi tashkilotlarning majburlorlari bilan, javobgarlikka tortilmaslik uchun to'lanadi. Shunday otalar ham borki, o'z farzandiga aliment to'lovini qisqartirish uchun, begona insonlardan yordam so'rab, «rozi qilish»larini aytib yuradilar. O'z farzandiga shu pulni berish esa «uvol»dek tuyuladi. Go'yoki bu bilan ular farzandlarini emas, sobiq rafiqalarini «yomonligi», «besabrligi» uchun jazolayotgandek. Lekin aslida kim qiynalmoqda? Kimning bolalik yillari o'zining bolalik orzularini chegaralash bilan o'tmoqda? Bolaning barcha turdagi ta'minotini o'z bo'yniga olgan, tinmay mehnat qilib, bolasini oyoqqa qo'yayotgan ona «yomon»mi yoki boshqa odam? Ayoli sobiqlik maqomini olgani bilan farzandlar shu inson nasibini davomchisi hisoblanadi. Insoniylik, mardlik tuyg'ularini unutmagan odam bolalarini na moddiy, na ma'naviy qiynoqlarda qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Shu masalalar yuzasidan, «2017 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Sud departamenti, hozirgi Majburiy ijro byurosi Namangan viloyati byuro sud ijrochilari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma'lum bo'lishicha, byuroga kelib tushayotgan ijro hujjatlarining 60%i alimentni to'lamaslik bilan bog'liq masalalarga oid. Otalik burchini unutgan insonlarga mas'uliyatlarini yodiga solish, ma'nan ta'sir ko'rsatish maqsadida «Farzandlarning ham sobiqi bo'ladimi?», «Dadajon bizni esingizdan chiqarmang!» shiorlari ostida bannerlar ishlab chiqarilib, viloyatning tuman markazlariga joylashtirib chiqildi» [15].

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2021 yilda voyaga yetmagan farzandiga aliment to'lashdan bo'yin tovlagan 5300dan ortiq fuqaro ma'muriy qamoq jazosiga tortilgan. 2022 yilda bu ko'rsatkich 8700dan ortgan. Majburiy ijro byurosiga kelib tushgan 48 ming 200 dan ortiq murojaatning 25 ming 600tasi, ya'ni 53%i alimentga oid. Joriy yilda aliment ijro hujjatlari bo'yicha moddiy yordamga muhtoj farzandlar foydasiga 495 mlrd so'mlik aliment pullari undirilgan, 2,2 mlrd so'mlik 13 ta uy-joy va 255 mln so'mlik 2 ta transport vositasi aliment oluvchilarga oldindan to'lov sifatida berilishi ta'minlangan. MIB huzurida tashkil etilgan «Aliment to'lovlari» davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan 487 nafar aliment oluvchilar foydasiga jami 6,2 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan. Byuro aralashuvi bilan 6 mingdan

ziyod qarzdor ishga joylashtirilgan, 11,200 dan ortiq oilalar yarashirilgan[16].

Tahlil va natijalar. Maqolaning amaliy qismi dala tadqiqotlari, ya'ni so'rovnoma va intervyu metodlari orqali o'rganildi. O'tkazilgan amaliy tadqiqot pilotaj ya'ni sinov ko'rinishida olib borildi va sifat ko'rsatkichlari muhim asos qilib olindi. Amaliy metodlardan keng foydalanish va ilmiy tadqiqot ishini muhim jihatlarni ochib berish maqsadida u 2 bosqichli qilib ishlab chiqildi:

1. Avvalo, oila ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislardan intervyu olindi. Intervyu yarim strukturali holatda tuzilib, intervyu uchun tuzilgan savollardan tashqari yana qo'shimcha holatlarga oydinlik kiritildi. Intervyuda 7ta mutaxassis o'z fikr, mulohazalari bilan ishtirok etdilar.

2. Ajrashgan erkak va ayollar uchun so'rovnoma tuzildi. Ushbu so'rovnoma, avval ajrashganlar bilan bevosita mulohaza qilish uchun mo'ljallab tuzilgan edi. Afuski, aksariyat insonlar yo mentalitetimiz tufayli, yoki hayotlarida bo'lib o'tgan noxush holatlarni qayta eslamaslik uchun bevosita o'tkazilayotgan so'rovnomaga rozi bo'lmadilar. Shu sababdan, so'rovnomaning elektron shakli yaratildi. Elektron so'rovnoma ko'plab telegramm va facebook internet tarmoqlari orqali tarqatildi. Ajrashgan erkak va ayollar uchun yanada qulaylik yaratish maqsadida, o'z fikrini uyalmay ifoda eta olishlari uchun so'rovnoma anonim tarzda tashkil etildi. Umumiy olganda so'rovnomada 23ta respondent ishtirok etdi.

Mutaxassislardan «Ajrimning ajrashgan insonlarning yaqinlariga ta'siri» haqida so'ralganda hammalari avvalo ajrim ajrashganlarning farzandlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tganlar. Masalan, ota-onasi ajrashgan bolalarda psixologik o'zgarishlar, o'zini agressiv tutish, tarbiya buzilishi, deviant xulq-atvoriga moyillik, xavotir, o'ziga va odamlarga ishonmaslik, kelajakka nisbatan ishonchning yo'qligi, ayniqsa balog'atga yetgan qizlarning turmushga chiqishiga qo'rqishi, g'iybat, gap-so'zlarga nishon bo'lish, aysiz aybdordek o'zini his qilish, bola bobo-buvisining uyida ham o'zini erkin his qila olmasligi, bolalikning erta tugashi kabilar kuzatilishini aytdilar. Kamdan-kam yarim yetim bolalar jamiyatda o'zlarini to'liq shaxs sifatida his qilib, namoyon qila oladilar, degan fikrlarni bildirdilar. Albatta, har bir bolajon uchun bu qat'iy hukm emas. Ma'lumotlarga qaraganda, o'zini tutib olgan bunday toifa bolalar o'zining mustaqil fikriga ega bo'lib, boshqalar biror muammosini hal qilib berishini kutmasdan o'zi mustaqil qaror qabul qila oladi, o'z hayotiy pozitsiyasi, qattiyati bo'ladi. Shuningdek, psixologning fikriga ko'ra, «Ajrim ajrashgan insonning aka-ukasi, opa-singlisining oila qurishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy fikr, mentalitet sababli insonlar ajrashgan odami bor oilaga qiz berish va qiz olishdan qo'rqishadilar». Yurist esa «Yoshlarning ota-onalari orzu-havas maqsadida tezroq farzandlarining oilali bo'lishlarini xohlashadi, nabiralarini katta qilishni orzu qilishadi. Lekin shoshma-shosharlik tufayli ko'pincha o'zlari va jondan aziz farzandlari jabr ko'radi. Ota-ona uchun farzandi kelajagi oldidagi ma'naviy javobgarlikdan ham og'irroq jazo yo'q. Shuningdek, agar qarindoshlar quda bo'lgan bo'lsa, ajrashish tufayli qarindoshlar o'rtaida nizolar kelib chiqib, yuz ko'rmas bo'lib ketadilar», dedi.

«Farzand(lar)ingiz otasi (onasi) bilan uchrashib turadilarmi va ularning munosabatlariga siz qanday qaraysiz?» degan savolga ajrashgan yoshlarning 18 tadan(78,2%) 8

nafari(34,7%) «Yo'q» degan javobni bergan. Respondentlar bu holatning sababini bolaning otasi yoki onasining o'zi uchrashishni istamasligi, yoxud farzand qaramog'ida qolgan inson buni xohlamasligi, otasi biror marta farzandini xatto ko'rmaganligi kabi debjavlar bilan izohlaganlar. 6ta(26%) ishtirokchi esa «Ha» deb javob bergan. Ba'zilar noilojlikdan ruxsat berganlarini, ayrimlar faqat telefon orqali gaplashib turishlarini aytganlar.

Ajrashgan yoshlarga «Ajrashishingiz farzand(lar)ingizga qanday ta'sir qildi?» deb berilgan savolga so'rovnomada variantlar belgilanmagan bo'lib, ishtirokchilardan o'z fikrlarini bildirishlari so'ralgan edi. Quyida fikrlardan namunalar: «Yomon»; «Tushkunlik»; «Buni vaqt ko'rsatadi»; «Qaytangi yaxshi, sababi otasi va uning oila a'zolarining betarbiyaligi va baqir chakirdan qutulib xotirjam bo'ldi»; «U dadasini bilmaydi»; «Albatta yomon. Ammo tinch, urush-janjallsiz oilada voyaga yetgani yaxshi bo'ldi»; «Boshqa bolalarga nisbatan kamgap, ko'zlari mungli»; «Agressiv bo'lib qolishdi»; «Ruhiyatiga tasir kildi»; «To'g'risi bilmayman. Farzandlarim bilan dadasini to'g'risida umuman gaplashmaymiz»; «Salbiy tomoni: odamlarga nisbatan ishonchsizlik, ijtimoiylashishda qiynalish kuzatildi. Lekin vaqti bilan o'ziligini tutib olishdi. Erkin yashab, o'z fikriga ega va fikrini erkin bayon qila oladilar. Hayot muammolari, qiyinchiliklarini vaqtinchalik sinov, deb qabul qilib, hayotga pozitiv yondashadilar. Muammodan qochmay uni yechimini topishga harakat qiladilar. Hamma yetimlikda katta bo'lgan bolalarda agressiya, tarbiyasizlik holatlari kuzatilmagan ekan. Odamlar bo'rttirib yuboradilar. Bu farzand katta bo'layotgan oilaga bog'liq ekan».

Ta'kidlash joizki, so'rovnomalar, olib borilgan boshqa tadqiqotlar hamda ilmiy xulosalar bilan ajrashib bo'lgan oilalarni qayta yarashirish yoki ularning hayot yo'lida biror narsani o'zgartirish qiyin. Ammo ularning hayot tajribalari, ko'rgan bilganlari, ajrashish sabablarini o'rganish orqali olimlar va tadqiqotchilar kelajakda qurilayotgan oilalar mustahkamligi yuzasidan o'z tavsiyalarini ishlab chiqishlari, kelib chiqishi mumkin bo'lgan oilaviy muammolarning oldini olishlari, ayrim insonlarning ajrashgan erkak va ayollar, ularning farzandlariga nisbatan mentalitetimizga o'rnashib qolgan salbiy munosabatni o'zgartirishlari orqali baxtli oilalar shakllanishiga ta'sir qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rmda ta'kidlash lozimki, ota-onalar birga bir oila bo'lib yashashdimi yoki yo'q bu ularning shaxsiy tanlovi. Lekin ota-onalik vazifasini bajarish farzand dunyoga kelishi bilan ularga burch qilib berilgan. Farzandi bilan do'stona munosabat o'rnatilgan ota-ona kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolarni oldini ololgan bo'ladi. Achinarli tomoni shundaki, noto'liq oilalarda otaning o'rni umuman yo'qolib qoladi. Oilasidan ajrashib, yangi hayot qurgan ota bolasini alim to'layotgan vaqtdagina eslaydi. Uning ta'lim-tarbiyasi, ruhiy holati, xatto esga ham kelmaydi. Bu bolaning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab, har qanday holatda otaning farzandi oldidagi ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy vazifasi hamda ushbu jarayondagi ota ibrati va tarbiyasining ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, noto'liq oilalarda farzand kamoli uchun sobiq er-xotinning do'stona hamkorlik munosabatlarini o'rnatishi naqadar muhim ekanligini dunyoviy va diniy bilimlar asosida keng targ'ib qilish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Yoshlarga donolar o'giti. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018. – B. 19.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445421>.
3. «Конвенция о правах ребёнка». Генеральная Ассамблея ООН. 20 ноября 1989 года. <https://lex.uz/docs/2595909>.
4. Amy Hermodson. Life after divorce: the marriages of adult children of divorce: A dissertation presented to the faculty of Arts and Humanities University of Denver in partial fulfillment of the requirements for the degree Doctor of Philosophy – Colorado, 1999. – P. 13.

5. Adnan A.A., Rauf R.I., Argustang A., Ahmad J. Agile leadership and divorce education: perception // *Humanities and Social Sciences Letters*, 2020. –VOL. 8 NO. 3. –P. 323-330. DOI: 10.18488/journal.73.2020.83.323.330.
6. Mechanic D. and Hansell S. Divorce, family conflict and adolescents' well-being // *Journal of health and social behavior*, 1989. –Vol.30, No.1 March. –P. 105-116. <https://doi.org/10.2307/2136916>.
7. Furstenber F.F. Divorce and the American family // *Annual review of sociology*, 1990. –Vol. 16 August. –P. 379-403. <https://doi.org/10.1146/annurev.so.16.080190.002115>.
8. Behere A.P., Basnet P., Campbell P. Effect of family structure on mental health of children: a preliminary study // *Indian Journal of Psychiatric Medicine*, 2017. –Vol. 39 Issue 4 July-August. –P. 457-463. <https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.4103/0253-7176.211767>.
9. Hogendoorn B., Leopold T. and Bol T. Divorce and diverging poverty rates: a risk-and-vulnerability approach // *Journal of Marriage and Family*, 2020. – Vol. 82(3) June. –P. 1089-1109. DOI:10.1111/jomf.12629.
10. Akramova F. va boshqalar. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – B. 108.
11. Shoumarov G'. va boshqalar. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 188.
12. Биниева Н.К. Проблемная семья: специфика семейно – брачной и половой социализации: Диссертация на соискание ученой степени кандидата социальных наук – Ростов-на-Дону, 2001. – Ст. 52.
13. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 1998 yil 30 aprel. <https://lex.uz/docs/104720>.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Vaxtiyor oila*. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2018. – B. 332.
15. Kun.uz rasmiy axborot sayti. 2017 yil 15 may ma'lumotlari. <https://kun.uz/news/2017/05/15>.
16. Kun.uz rasmiy axborot sayti. 2023 yil 13 aprel ma'lumotlari. <https://kun.uz/uz/98759528>.